


Ta'lim sifati monitoringini tashkil etish va o'tkazishda xalqaro PISA baholash dasturidan foydalanish



Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada?

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga boʻlgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu oʻz-oʻzidan oʻquvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va oʻqituvchilarning har tomonlama taʼlim tarbiyaga eʼtiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning taʼlim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi taʼlim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan ilgʻor tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.




Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

- ❖ Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi **ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rnini** to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.



- ❖ Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.



- ❖ Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi **milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga** ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



- ❖ Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan **milliy baholash tizimini yaratish** imkonini beradi.
- ❖ O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali **mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi**, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.
- ❖ Milliy ta’lim sifatini baholashdagi **nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish** imkonini beradi.



Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?



PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi



PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot



TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring



ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot

kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo‘llanilmoqda.

PISA – o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur

PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.


Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan.

PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o‘shishini ta’minlaydi.




Ishtirokchi davlatlar soni

PISA testlarida ishtirok etayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda.



PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi

5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.



***Izoh:** O'zbekiston 2021-yilda 3 ta (*o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik*) yo'nalish bo'yicha ishtiroki etishi ko'zda tutilmoqda.

2015-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari (O'qish savodxonligi yo'nalishi)

O'rin	Mamlakat	O'rtacha ball
1	Singapur	535
2	Gonkong (Xitoy)	527
3	Kanada	527
4	Finlandiya	526
5	Irlandiya	521
6	Estoniya	519
7	Janubiy Koreya	517
8	Yaponiya	516
9	Norvegiya	503
10	Yangi Zellandiya	501

Manba: <http://www.oecd.org/pisa/>

2015-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari

(Matematik savodxonlik yo'nalishi)

O'rin	Mamlakat	O'rtacha ball
1	Singapur	564
2	Gonkong (Xitoy)	548
3	Makao (Xitoy)	544
4	Tayvan	542
5	Yaponiya	532
6	Xitoy	531
7	Janubiy Koreya	524
8	Shveysariya	521
9	Estoniya	520
10	Kanada	516

Manba: <http://www.oecd.org/pisa/>

2015-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

(Tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishi)

O‘rin	Mamlakat	O‘rtacha ball
1	Singapur	556
2	Yaponiya	538
3	Estoniya	534
4	Tayvan	532
5	Finlandiya	531
6	Makao (Xitoy)	529
7	Kanada	528
8	Vyetnam	525
9	Gonkong (Xitoy)	523
10	Xitoy	518

Manba: <http://www.oecd.org/pisa/>

Mo'ljalimiz: o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratish.



Buning uchun nimalarni amalga oshirdik va yana qanday ishlarni bajarish zarur?



O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi
**“2017-2018 o‘quv yilida ta’lim sifati monitoring tizimini yanada
takomillashtirish va tashkil etish to‘g‘risida”gi**
299-sonli buyrug‘ining




3-band 2-xatboshida:

Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg‘or xalqaro tajribalar(PISA, TIMSS va h.k.)ni o‘rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o‘quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralari ko‘rish




4-bandida:

Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so‘rovnoma, og‘zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20 % gacha o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o‘quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo‘llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo‘yilgan.






2017-2018 o‘quv yili ta’lim sifati monitoring jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda umumta’lim fanlari bo‘yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv topshiriqlari ishlab chiqildi.



**2017-2018 o‘quv yili ta’lim sifati monitoringida 8-10 sinf
o‘quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan
test topshiriqlari to‘g‘risida ma’lumot**
(fanlar kesimida tuzilgan testlar soni)



2017-2018 o'quv yili ta'lim sifati monitoringida 8-10 sinf o'quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan jami test topshiriqlari




■ 1-yarim yillik ■ 2-yarim yillik

Xo'sh natijalar qanday ko'rinish oldi?



2017-2018 o'quv yili ta'lim sifati monitoringida 8-10 sinf
o'quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan test
topshiriqlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari
(fanlar kesimida)



2017-2018 o'quv yili ta'lim sifati monitoringida 8-10 sinf o'quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan test topshiriqlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari



**2-yarim yillikda
+1,7 % o'sish
kuzatilgan**


■ 1-yarim yillik ■ 2-yarim yillik

**Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlarida ijobiy
natijaga erishish uchun nimalarni amalga
oshirish lozim?**




O'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan na'munalar (*fizika*)

POYGA AVTOMOBILINING TEZLIGI



Grafikda poyga avtomobilining 3 kilometrlik aylanma yo'lni ikkinchi marta aylanishdagi tezligining o'zgarishi ko'rsatilgan.

POYGA AVTOMOBILINING TEZLIGI



1-topshiriq: Start chizig'idan yo'lining eng uzun to'g'ri chiziqli qismigacha taxminan qancha masofaga bor?

- A) 0,5 km **B) 1,5 km** C) 2,3 km D) 2,6 km

2-topshiriq: Ikkinchi aylanishda yo'lining qaysi qismida avtomobilning tezligi eng kichik qiymatga ega bo'lgan?

- A) Start chizig'ida B) Taxminan 0,8 km nuqtada
C) Taxminan 1,3 km nuqtada D) Taxminan yo'lining o'rtasida



3-topshiriq: Yo'lining 2,6 km va 2,8 km lik nuqtalari orasida avtomobilning tezligi haqida nima deyish mumkin?

Javob: Avtomobil tezligi ortadi

POYGA AVTOMOBILINING TEZLIGI

4-topshiriq:

Quyida 5 ta turli xil shakldagi poyga yo'llari tasvirlangan. Bu poyga yo'llarining qaysi biri grafikda tezligi ko'rsatilgan poyga avtomobiliga tegishli? (ushbu yo'l ko'rsatilgan harfni aylanaga oling) (**Javob: B**)



O'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan na'munalar (*matematika, texnologiya*)

O'YIN TOSHLARI




Rasmda ikkita o'yin toshlari tasvirlangan.

O'yin toshlari – o'zgacha, ular o'ziga xos qoidaga ega.

O'yin toshining istagan ikki qarama-qarshi tomonlarining yig'indisi 7 ga teng.



1-topshiriq. Siz oddiy qog'oz karton yordamida turli usullarda o'yin toshchalarini yasashingiz mumkin. Quyida 4 ta kub yoyilmasi berilgan, yoyilmada ochkolar qo'yib chiqilgan. O'yin toshlarining o'ziga xos qoidasi asosida qaysi yoyilmalardan kub yasash mumkin?




Berilgan jadvalning har bir qatoridan **“Ha”** yoki **“Yo‘q”** belgisini belgilang.

Yoyilma	O'yin toshlarining o'ziga xos qoidasi bajarilmoqdam?
I	Ha / Yo‘q
II	Ha / Yo‘q
III	Ha / Yo‘q
IV	Ha / Yo‘q


O'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan na'munalar (matematika, biologiya)

GULZOR

Lola tomorqasida gulzor tashkil qilmoqchi. Unda gulzor atrofini chegara bilan o'rash uchun 32 metr sim bor. Lola quyida berilgan qaysi shakllarda gul ekishi




I shakl




III shakl

Berilgan jadvalning har bir qatoridan “Ha” yoki “Yo‘q” belgisini belgilang.

Gulzor shakli	32 metrlik sim chegarasini to'liq o'rab chiqishga yetadimi?
I	Ha / Yo‘q
II	Ha / Yo‘q
III	Ha / Yo‘q
IV	Ha / Yo‘q



II shakl



IV shakl

O'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan na'munalar (matematika, fizika)

SUZISH HAVZASI

Grafikda rasmdagi suzish havzasiga to'ldiriladigan suv hajmining vaqtga bog'lanishi keltirilgan.



1-topshiriq: Berilgan formulalar ichidan suzish havzasiga to'ldiriladigan suv hajmining vaqtga bog'lanishini ifodalovchi formulani ko'rsating.

A) $V=100 t$ B) $V=200 t$ C) $V=400 t$ D) $V=600 t$

2-topshiriq: Suzish havzasiga 4 soatda to'ldiriladigan suvning hajmi, 5 soatda to'ldiriladigan suv hajmining qancha foizini tashkil qiladi?


Javob: 80 %

3-topshiriq: Suzish havzasida 200 m³ suv bor bo'lsa, yana qancha vaqtdan so'ng suv havzasi to'la holatga keladi?

Javob: 4 soat

O'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan na'munalar (matematika, biologiya)

BO'Y O'SISHI



Diagrammada o'g'il va qiz bolalar bo'yining o'rtacha o'sish grafigi ko'rsatilgan.

1-topshiriq.

Grafikdan foydalanib 12 yoshdan so'ng qiz bolalar bo'yi o'sishining o'rtacha ko'rsatkichi sekinlashganligini tushuntirib bering.

Javob: 12-14 yosh oralig'ida qizlar bo'yi 10 sm, o'g'il bolalar bo'yi 18 sm ga o'sgan.

2-topshiriq.

Grafikdan qaysi yoshlarda qiz bolalarning o'rtacha bo'yi o'g'il bolalarning o'rtacha bo'yidan baland bo'lganligini aniqlang.


Javob: 11-13 yosh oralig'ida

3-topshiriq.

Grafikda qaysi yoshlarda o'g'il va qiz bolalar bo'ylarining o'rtacha ko'rsatkichi teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. (yoshini va bo'yi balandligini ko'rsating)

Javob: 11 yoshda 145 sm, 13 yoshda 160 sm

Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan kelgusi vazifalar




O‘qish (ona tili), matematika va tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan samarali foydalanish

Tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog‘lab o‘qitish


Fizika, kimyo va biologiya fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni (laboratoriya, masalalar yechish) yanada samarali tashkil etish

Sinfdan tashqari fan to‘garaklarida o‘quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzularda mashg‘ulotlar olib borish


Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kelgusi vazifalar




O'quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini yaratish va joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarda muntazam ravishda qo'llash



Aniq, tabiiy va filologiya yo'nalishdagi tayanch maktablari seminarlarida xalqaro baholash dasturlari, ularda foydalanadigan topshiriqlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish



***Umumta'lim maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, internetdan foydalanish imkoniyatini va sifatini yaxshilash**



****Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish**

**** Umumta'lim maktablari direktorlari mas'ul hisoblanadi.***

***** VXTB, TXTB Ta'lim sifati monitoringi inspektor-metodistlari mas'ul hisoblanadi.***

**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**

